



## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATINI OSHIRISH

**Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'limda  
ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi v/b dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*


**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, innovatsion kasbiy faoliyatini oshirish to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Tayanch so'z va tushunchalar:** *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kasbiy metodik tayyorgarlik, innovatsion kasbiy faoliyat.*

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohaslarida aks etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashdan iborat. Shu bois, o'qitish va tarbiyalash jarayoni ta'lim sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun dunyo ilm-fanida





o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda kasbiy rivojlantirish bo'yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan o'rganilgan ilmiy-nazariy qarashlarni bilish lozim. Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi alohida ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlarda o'qituvchining pedagogik faoliyatini takomillashtirish masalalari keng o'rganilib kelinmoqda. Yevropa mamlakatlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihati Chjay Xunyun, Ye.N.Galiullina tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodikasini oshirish, o'quv faoliyati samaradorligining yuqori bo'lishi hamda ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'limga tatbiq qilish zarurati izohlanadi.


Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda boshlang'ich ta'limda o'qitish va pedagogik-psixologik masalalari N.Muslimov, Y.G'oziyev, K.Mamedovlar, kasbiy tayyorgarlikni innovatsion texnologiyalar hamda metodlar orqali shakllantirish N.N.Azizzodjayeva, O'.Q.Tolipov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini qo'ymoqda. Innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangilangan talablardan biri, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va uzluksiz yangilanib boradigan bilimlar zaruratini o'rgatishdan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun talaba o'qituvchi faoliyati tuzilishini yaxshi anglashi zarur. Ma'lumki, innovatsion faoliyat ma'lum doiradagi vazifalarni yechishni bilish bilangina emas, balki tashqi vazifalarni izlash va hal etishga motivatsion tayyorgarlikning mavjudligi bilan ham bog'liq. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda hamda innovatsion faoliyatini amalga oshirishda pedagog shaxsining o'z-o'zini namoyon etishi muhim sanaladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati sanab o'tiladigan motivlar quyidagicha: innovatsiyalarni joriy etishning muayyan elementlari uchun moddiy mukofotlash bilan bog'liq tashqi rag'batlar; o'qituvchi o'z-o'zini mustahkamlash motivlari





(atrofdagilarning tashqi ijobiy baholashlari orqali o'z-o'zini mustahkamlash); kasbiy motiv; shaxsiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlaridan iborat.

O'qituvchining innovatsion faoliyatida kreativlik ham muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik ijtimoiy ahamiyatli ijodiy faollikni namoyon etish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan ijodkorlik, insonning ijodiy imkoniyatlari hamda uning alohida xususiyati sifatida qaraladi. Innovatsion faoliyatning texnologik komponenti refleksiv xususiyatga ega bo'lib, ta'lim oluvchilar jamoasi fikri va harakatini hamda o'z faoliyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tushunish va talqin qilish faoliyatini yoritadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi maqsadga yo'naltirilgan yangi axborotlarni qidiradi, mualliflik maktabini yaratadi, o'z tajribasini boshqalar bilan baham ko'radi. Bunday o'qituvchilar faoliyatida muhim rol ni sezgi, innovatsion tasavvur, improvizatsiya egallaydi. Barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham yangiliklarga bir xilda munosabatda bo'lmasligi va bir vaqtda qabul qilmasligi hammaga ma'lum. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning o'zlashtirgan kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatida amaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog'liq. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagi xususiyatlarda: boshlang'ich sinf o'qituvchilar shaxsini shakllantirishning boshlang'ich davrda amalga oshirilishi; og'zaki va yozma nutqni bilishning dastlabki ko'nikma va malakalarini shakllantirishi; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishishlari va kommunikativ kompetensiyaning shakllangani bilan bog'liq hisoblanadi. Mazkur yaxlit jarayonni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonlarida tizimli tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qituvchisining yoshi va individual xususiyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishiga to'g'ri keladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarda fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsiyalar xususiyati va mazmunida ifodalanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyati xususiyatlari tasnifini quyidagicha keltirishimiz mumkin.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsini shakllantirish.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv (bilish) faoliyatini tashkil etish.
4. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.
5. Integrativ yondashuv.
6. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
7. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida og'zaki nutq va yozma nutqni rivojlantirish.
8. Hissiy rag'batlantirish.





9. Milliy qadriyat va bag'rikenglik munosabatini shakllantirish.

10. Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish.

O'qituvchi ijodiy yondoshuvchi, izlanuvchan, pedagogik g'oyalar mujassamlashgan shaxs sifatida tavsiflanadi. Kasbiy innovatsion mahoratni egallash o'quvchilar to'g'risidagi bilimlar boyligini har tomonlama chuqur egallashi asosida hosil bo'lishi mumkin. Yuqori pedagogik madaniyat o'qituvchiga ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli tanlash imkonini beradi va bu o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosidayoritadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbi uchun mumkin bo'lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarni yenga bilishi shart:

-apatiya;

-bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik;

-bolalarga va ularning taqdirlariga befarqlik;

-jizzakilik;

-qarorlarni qabul qilishda xulq-atvoridagi shoshqaloqlik va o'ylamaganlik.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan majburiy hisoblanadi, ikkinchi tomondan ularni bilish o'qituvchiga innovatsion yo'nalishlar va texnologiyalar ko'rinishlarini tushunish, o'zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlashi va aniq innovatsion pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y.

2. Muslimov.N.A.Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok....diss.-T.:2007,-315.b

3. Чжай Хунюнь. Методические подходы к совершенствованию подготовки будущих учителей начальных классов к применению информационных и коммуникационных технологий в профессиональной деятельности дис. ...канд. Пед. наук: 13.00.08, 2018.- 175 с.

4. Галиуллина Е. Н. Методическая подготовка будущих учителей начальных классов к обучению младших школьников решению "открытых" задач : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02, 2006 198 с.

5. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma.-T.2005 y

6. G'affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy endashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.





7. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor- o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi”. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissert. avtoreferati. Samarqand – 2019.

